SO'Z BIRIKMASI VA SINTAGMA

Abdurashitova Zebo

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Arabboyeva Mahfuza

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada so'z birikmasi va uning tarkibiy qismlari haqida, sintagma va uning so'z birikmasi bilan qanday bog'lanishi turlari haqida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: So'z birikmasi, sintagma, hokim va tobe so'zlar,ravish birikma, holli birikma.

So‘z birikmasi — ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil bo‘lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma — nutq birligi: ignaning ko‘zi, kitobni o‘qimoq, oydin kecha va boshqa. Har qanday so‘z birikmasi birdan ortiq mustaqil so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladi, tuziladi va ikki qismdan — hokim va tobe qismdan tashkil topadi: oliy ma’lumot (oliy — tobe qism, ma’lumot — hokim qism).So‘z birikmasi komponentlarining tarkibiga ko‘ra sodda va murakkab turlarga bo‘linadi. Komponentlarining har biri bir so‘z shakliga teng bo‘lgan so‘z birikmasi sodda so‘z birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq so‘zdan, so‘z birikmasidan iborat bo‘lgan birikmalar murakkab so‘z birikmasi deyiladi. Masalan, oliy ma’lumotli mutaxassis (oliy ma’lumotli — tobe qism, mutaxassis — hokim qism).Tarkibidagi hokim qismning qaysi so‘z turkumidan bo‘lishiga ko‘ra so‘z birikmasining 2 turi farqlanadi: ot so‘z birikmasi va fe’l so‘z birikmasi. Ot so‘z birikmasi hokim komponenti fe’ldan boshqa turkumga oid so‘z (ot, son, ravish) bilan ifodalangan so‘z birikmasidir (yuk mashinasi, barcha o‘quvchilar, go‘zal qishloq va boshqalar). Fe’l so‘z birikmasi hokim kismi fe’l bilan ifodalangan so‘z birikmasilaridir (bog‘ni aylanmoq, kitob o‘qimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe so‘zning sintaktik vazifasiga ko‘ra 3 turi farqlanadi: aniqlovchili so'z birikmasi (yangi kitob), to‘ldiruvchili so‘z birikmasi (ukamni o‘ynatdim) va xolli so‘z birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq).So‘z birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega bo‘lmaydi, fikr ifodalamaydi va shu xususiyati bilan sintaktik birlik bo‘lmish gapdan farqlanadi. Teng bog'lanish so'z qo'shilmasini, tobe bog'lanish so'z birikmasini hosil qiladi.Bundan tashqari so'z birikmalari 1) boshqaruvli (tushum, jo‘nalish, o‘rin - payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari orqali bog'lanish) , 2) bitishuvli (ohang orqali bog'lanish) va 3) moslashuvli (qaratqich kelishik qo'shimchasi va egalik qo'shimchalari orqali bog'lanish) so'z birikmalariga bo'linadi .

Sintagma (yun. syntagma — qandaydir birikkan, birga qo‘shilgan narsa) — 1) og‘zaki nutq yoki yozilgan matndan tegishli ran doirasida muayyan intonatsionmazmuniy birlik sifatida ajratib olinadigan bo‘lak, parcha. Ushbu ma’noda S. bir so‘zdan, so‘zlar guruhidan va bir butun gapdan iborat bo‘lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda S. bilan so‘z birikmasini tenglashtirish hollari ham uchraydi. Lekin nutq jarayonini kuzatish S. va so‘z birikmasi aynan bir narsa emasligini, har doim ham birbiriga teng kelavermasligini ko‘rsatadi. Masalan, "Biz, yoshlar, mustaqil vatanimizni sevamiz" gapida 3 ta S. va 2 ta so‘z birikmasi mavjud. Minimal intonatsionmazmuniy birlik bo‘lgan S.lar gapning ritmik guruhlarini tashkil etadi, ya’ni gapda qancha ritmik guruh bo‘lsa, shuncha S. bo‘ladi. Gapni S.larga bo‘luvchi asosiy vositalarga nutq melodikasi, tezligi, maromi, pauza, so‘z urg‘usi kabilar kiradi. S. qismlarining biri (ko‘pincha,

oxirgisi) bosh urg‘u (mantiqiy urg‘u)ga ega bo‘ladi va bu qism S.ning intonatsion markazini tashkil qiladi. S.lar uning tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro aloqasiga ko‘ra (predikativ S, atributiv S, relyativ S, obyektiv S); gapda tutgan o‘rniga ko‘ra (tugallanma S, boshlanma S); ularning intonatsion zanjirini shakllantirish turiga kura (tugallangan S, tugallanmagan S, kirish S, zidlovchi S, izoxlovchi S.) tavsiflanadi; 2) aniklovchi — aniqlanmish aloqasi bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq til birliklarining izchilligi; so‘zlar izchilligi (tashqi S.) va morfemalar izchilligi (ichki S.) o‘zaro farutnadi. Mas, "uycha" birligi ichki S. bo‘lib, undagi "uy" — aniqlanmish, "cha" esa aniklovchi qismdir; "kichkina uy" birligi esa tashqi S. bo‘lib, "uy" — aniqlanmish qism, "kichkina" — aniklovchi qismdir. "S." terminini ushbu ma’noda dastlab shveysariyalik olim F.D.Sossyur qo‘llagan. Sintagmatika til birliklarining nutq jarayonida o'zaro bog'langan holda qo'llanishini tekshiradi. Demak, lisoniy birliklarning - masalan, so'zlarning nutq faoliyatida ketma-ket kelishi, muayyan tartibda joylashishi sintagmatika sifatida namoyon bo'ladi.Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. qiyoshlang: Men istiqlol tufayli gullab yashnayotgan Vatanning farzandiman, Ko'rinib turibdiki, nutq faoliyatida muayyan "yotiq chiziqqa" joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabat sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta'sir qilishi - insonda lisoniy sezgi uyg'otishi bilan ham o'ziga xosdir.Sintagma so‘zi fransuz tilidan kelib chiqqan hisoblanadi. "Tartiblangan guruh", "to‘plam", "qo‘shin", yoki "sintaktik element" degan ma’noni anglatadi.

Sintagma bir havo chiqarish bilan, bir nafas kuchi bilan aytiladi, so`ng orada pauza bo`lib, boshqa singtagma boshlanadi. Sintagma ikki qisqa pauza orasidagi nutqiy element, eng sodda sintaktik parchadir. Sintagma bir necha so`zli va bir so`zli bo`ladi.

Sintagma tobelanish asosida tuziladi: unda bir so`z yetakchi (yadro), boshqalari shunga tobe bo`lib keladi. Singtagmalanishning ma`lum qonunlari bor. Sintagma aniqlovchi bilan aniqlanmish munosabatida, fe`l kesimning ravish holi bilan birikuvida va boshqa shu kabi o`rinlarda uchraydi. Sintagmalanishda ohangning o`rni katta.So`z birikmasi bilan sintagma orasida yaqin munosabat bor: Universitet talabalari // barcha sohalarda // juda faollik ko`rsatmoqdalar.So`zlarning o`zaro bog`lanib, so`z birikmasi tashkil qilish hodisasi elementlarning erkin birikilishini ko`zda tutadi, turg`in (barqaror birikmalar) frazeologik iboralar boshqacha xususiyatga ega. Bularda erkin bog`lanish emas, grammatik-semantik butunlik, ajralmaslik mavjud bo`ladi.Erkin birikmalardagi so`zlarni talabga qarab almashtirish mumkin (chiroyli rasm, katta uy), bunday hodisa turg`un birikmalarda yo`q.

So`z birikmasi tuzilishiga ko`ra ikki turga bo`linadi: sodda birikma va murakkab birikma.Sodda birikma ikkita mustaqil so`zdan tuziladi: keng dala,o`nta kitob kabi.Ayrim vaqtda ajralmas butunlik shaklidagi birliklar (yetti yoshli bolalar, to`qqiz qavatli bino kabi) yoki turg`un birikma shaklidagi birliklar (borsa kelmas oroli,qush qo`nmas tepaliklar) ham sodda birikma hisoblanadi.Murakkab birikmalar esa uch yoki undan ortiq mustaqil so`zning birikuvidan tuziladi. Aslida murakkab birliklar sodda birikmaning kengayishidan hosil bo`ladi: chinni piyola, gulli chinni piyola, paxta gulli chinni piyola, o`nta paxta gulli chinni piyola.Turg`un birikmalar butunligicha yaxlit holda qo`llanib, til birligi hisoblansa, so`z birikmasi nutq jarayonidagina hosil bo`ladi.So`z birikmasidagi so`zlar o`z ma`nosini saqlaydi, turg`un birikmadagi so`zlar esa butunicha o`z ma`nosidan ko`chgan yoki qismlarining biri o`z ma`nosini o`zgartirib yuborgan bo`ladi: Qiyos qiling: qo`l qo`ymoq-daftarni qo`ymoq.

So`z birikmalari, komponentlarining grammatik tabiatiga ko`ra, tasnif qilinganda, hokim bo`lakning morfologik tabiati, tobe bo`lagining sintaktik tabiati asosga olinadi. Hokim

bo`lakning qaysi so`z turkumiga oidligiga qarab so`z birikmalari uch guruhga bo`linadi: ot birikma, fe`l birikma, ravish-sifat birikma.

Ot birikma: ot +ot (maktab o`quvchilari), olmosh +ot (shu vatan), sifat +ot (katta ko`cha), son + ot (uchta vazifa), sifatdosh + ot (aytilgan so`z), harakat nomi (ishlashning natijasi), taqlidiy so`z + ot (taqir-tuqur ovoz) kabi ko`rinishlarda shakllanadi.

Fe`l birikma: Bunda hokim bo`lak vazifasida fe`l va uning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari keladi. Tobe bo`lak vazifasida esa, fe`ldan boshqa so`z turkumlari ishlatiladi. Bu xil birikmaning ko`rinishlari: ot + fe`l (vatanni sevmoq) sifat +fe`l ( yaxshi ishlamoq), olmosh + fe`l (qanday yurmoq), son + fe`l (bir gapirmoq), ravish + fe`l (ko`p gapirmoq), ravishdosh + fe`l (qiziqib so`ramoq), taqlidiy so`z + fe`l (taq-tuq ochilmoq) kabi.

Ravish birikma: Bunda hokim so`z vazifasida ravish qo`llanadi. Bu xil birikmaning ko`rinishlari: ot + ravish, (Jamoldan tez), olmosh + ravish (hammadan ko`p) kabi.Sifat birikma: Buning hokim bo`lagi vazifasida sifat keladi: ot+sifat (temirdan qattiq), olmosh+sifat (mendan katta) kabi.

Modal so`zli so`z birikma: Buning hokim bo`lagi vazifasida modal so`zlar keladi: o`zingda yo`q, olamda yo`q.So`z birikmalari, tobe bo`lagining sintaktik tabiatiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:To`ldiruvchili so`z birikmalari: Oyni etak bilan yopib bo`lmas.

Aniqlovchili so`z birikmalari: To`za qalbda dog` bo`lmas.

Holli so`z birikmalari: Or- nomusga soqchi bo`lar aql har dam.

Mazmuniy sintagmatik munosabat: Sintaktik birliklar faqat shakliy jihatdanshna emas, balki mazmuniy jihatdan ham o’zaro bog’lanadi. Ikki sintaktik shaklnjng bir-biri bilan to’g’ri bog’lanishi uchun fakat shakliy bog’lanishning to’g’rshigi kifoya qilmaydi. Masalan, yemoq fe’li o’timlilik xususiy grammatjk ma’nosiga ega bo’lganligi tufayli shakliy jihatdan tushum kelishigidagi otni boshqarib keladi. Demak, tobe qismning tushum kelishishda kelishini talab qiladi. Har qanday tushum kelishigidagi otning o’timli fe’l bilan grammatik borlanishi shakliy jihatdad to’g’ri. Masalan, toshni yemoq. Lekin har qanday tushum kelishigidagi otning yemoq hokim bo’lagiga bog’lanaverishiga mazmun yo’l qo’ymaydi.

Tushum kelishigidagi tobe qism bilan hokim qism to’g’ri bog’lanishi uchun mazmuniy moslikka ham ega bo’lishi kerak. Tobe va hokim qism har ikkisida takrorlanadigan umumiy semaga ega bo’lishi kerak. Ana shu umumiy sema tobe va hokim qismlarning mazmuniy bog’lanishi uchun asos bo’ladi. Masalan, yemoq fe’li faqat yemiga mazmuniy maydoniga kiruvchi so’zlar bilai bog’lana oladi (go’sht, osh, olma, gilos va boshqalar).

Mazmuniy birliklarning ketma-ket munosabati mazmuniy sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati kishi ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning o’zaro munosabatidir. Masalan, predmet va uning belgisi (ta’mi— mazasi, xususiyati, rangi, miqdori va boshqalar) o’rtasidagi munosabat, harakat va uning belgisi (tarzi, sababi, o’rni, payti va shu kabilar) o’rtasyadagi munosabat, harakat va uning sub’ekti o’rtasidagi munosabat, harakat va uning ob’ekti o’rtasidagi munosabat va boshqalar.SHunga muvofiq, sintaktik birliklar o’rtaspdagi mazmuniy sintagmatik munosabatni ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:1.sub’ekt va predikat munosabati yoki predikativ va sub’ektli munosabat;2.belgi va predmet o’rtasidagi munosabat yoki atributiv munosabat;3.belgi bilan harakat o’rtasidagi munosabat yoki relyativ munosabat;4.predmet (ob’ekt) va harakat o’rtasidagi munosabat yoki ob’ektli munosabat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov A. Predikativlik //Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: O'qituvchi.1987,37-38-b.(Darslikka M.Asqarova hammuallif)

2 Nurmonov A., va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent: Fan,1992,58-b.

3 Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1991, 5-son,42-47 -b.;

4.Nazarova S. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari: Filol. fan.nom.diss. avtoref.-Toshkent, 1997, -21 b.;

5. Ломтев Т.П. Предложение и его грамматические категории.-Москва, 1972,62-b.

6.Haynazarova M. So`roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi: Filol. fan . nom . diss . avtoref, -Toshkent, 1999.-26 b.

7. P-predikat. Bu o'rinda gap simvollari uchun qo'llanilgan.

8. Bu haqda qarang: Xolboyeva M. Buyruq gaplar semantikasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 2005, 2-son,104-106 -b

9Abuzalova M. O'zbek tilida soda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: –Toshkent, 1994,10- b.

10 Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol (WPm) valentligi aspektida): Filol.fan.nom….dis.avtoref. –Toshkent, 1997, -21b.